



DIZARTRIK BOLADA UMUMIY VA MAYDA MOTORIKANI RIVOJLANTIRISH

Ismatova Dilso'z Asadovna,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Logopediya yo'nalishi MSPD-1U talabasi.

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil

Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil

Jurnal soni: 17-B

Maqola raqami: 49

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1492>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

dizartriya, umumiy va mayda motorika, mator ko'nikmani rivojlantirish, barmoq mashqlari, koordinatsiya, plastilin, qum, ergoterapiya, art terapiya.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada dizartriya nutq buzilishining klinik-pedagogik xususiyatlari, uning kelib chiqish sabablari hamda dizartrik bolalarda umumiy va mayda motorika rivojlanishining o'ziga xos jihatlari ilmiy-nazariy asosda yoritilgan. Dizartriya – markaziy yoki periferik nerv tizimi shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan, nutq apparati mushaklarining innervatsiyasi buzilishi bilan tavsiflanadigan murakkab nutq nuqsonidir. Ushbu holat nafaqat tovush talaffuzi va nutq ravonligiga, balki bolaning umumiy harakat koordinatsiyasi, muvozanati, mushak tonusi hamda nozik qo'l harakatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maqolada dizartrik bolalarda uchraydigan umumiy motorika (yirik harakatlar) va mayda motorika (barmoq va qo'l mushaklari harakati) buzilishlarining sabablari, ularning psixofiziologik mexanizmlari hamda nutq rivojlanishi bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilingan. Shuningdek, motor faoliyatning yetarli darajada shakllanmaganligi bolaning kognitiv rivojlanishi, yozuv ko'nikmalari, o'z-o'ziga xizmat qilish malakalari va ijtimoiy moslashuviga ta'siri ochib berilgan. Maqolada motor ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan korreksion-pedagogik ishlar tizimi, jumladan, barmoq o'yinlari, plastilin va qum bilan ishlash, konstruktiv o'yinlar, muvozanat va koordinatsiyani rivojlantiruvchi mashqlar, shuningdek, ergoterapiya va art-terapiya elementlarining ahamiyati asoslab berilgan. Mashg'ulotlarni tashkil etishda tizimlilik, bosqichma-bosqichlik, individuallashtirish va muntazamlik tamoyillariga amal qilish zarurligi ta'kidlangan. Maqolada dizartrik bolalarda motorikani rivojlantirish jarayoni logoped, nevrolog, defektolog hamda ota-onalar hamkorligida olib borilishi lozimligi qayd etilib, kompleks yondashuvning samaradorligi ilmiy manbalar asosida asoslangan. Xulosa sifatida mayda va umumiy motorikani rivojlantirish nutqni korreksiya qilish jarayonining ajralmas qismi ekanligi, u bolaning psixomotor, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan dalillangan.

Kirish. Dizartriya – bu markaziy yoki periferik nerv tizimining shikastlanishi natijasida nutq apparati mushaklarining innervatsiyasi buzilishi bilan tavsiflanadigan murakkab neyrologik nutq buzilishi hisoblanadi¹. Ushbu holat bolaning tovushlarni aniq talaffuz qilish, nutq ritmi va intonatsiyasini saqlash, shuningdek, nutq tezligi va ravonligini boshqarish qobiliyatiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dizartriya faqat nutq buzilishi bilan chegaralanmay, bolaning umumiy jismoniy rivojlanishi, koordinatsiya, muvozanat, mushak tonusi va nozik motorikasi bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli, dizartrik bolalarda umumiy va mayda motorikani rivojlantirish masalasi pedagogik va terapevtik jihatdan katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Mayda motorika – bu qo'l, barmoq va boshqa kichik mushaklar orqali aniqlik bilan harakatlarni boshqarish qobiliyatidir. U bolalarning kundalik hayotidagi ko'plab faoliyatlar, jumladan yozish, chizish, buyumlarni tutish, tugmalarni bosish va nozik manipulyatsiyalarni bajarishi uchun zarurdir. Shu bilan birga, mayda motorika rivojlanishi vizual-motor koordinatsiyani, tafakkur va diqqatni shakllantirishga yordam beradi hamda nutq apparati mushaklarini mustahkamlashga bevosita ta'sir ko'rsatadi².

Umumiy motorika esa yirik mushaklar va butun tana harakatlarini boshqarish bilan bog'liq bo'lib, bolalarning muvozanat, koordinatsiya, kuch va harakat barqarorligini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Dizartriya bilan og'rigan bolalarda umumiy motorika yetarlicha rivojlanmagan bo'lishi mumkin, bu esa ularning harakatlarini muvofiqlashtirish, kundalik faoliyatlarda mustaqil bo'lishi va o'z-o'zini parvarish qilish ko'nikmalarini shakllantirishga to'sqinlik qiladi.

Shu nuqtai nazardan, dizartrik bolalarda motorikani rivojlantirish faqat nutqni korreksiya qilishga emas, balki bolaning jismoniy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur jarayonda logopedik, defektologik va ergoterapevtik yondoshuvlar, shuningdek kreativ o'yin va mashqlar orqali bosqichma-bosqich motor ko'nikmalarni shakllantirish metodikalari qo'llaniladi.

Adabiyotlar tahlili. Dizartriya bilan bog'liq tadqiqotlar ko'p jihatdan bolalarda nutqning neyrologik va motorik asoslarini o'rganishga qaratilgan. Masalan, L.S.Volkova dizartriya bilan og'rigan bolalarda logopedik yordamning nazariy va amaliy jihatlarni batafsil tahlil qilgan bo'lib, mayda motorika mashqlari va barmoq o'yinlarining nutqni korreksiya qilishdagi samaradorligini ko'rsatadi³.

L.Lopatina va N.Serebryakova esa nutq buzilishi bilan birga kuzatiladigan motorik qobiliyatlarining buzilishi, xususan, mayda va umumiy motorika rivojlanishidagi farqlarni tadqiq qilgan. Ularning ishlarida konstruktiv o'yinlar, qog'oz va plastilin bilan mashqlar orqali barmoq mushaklarini mustahkamlashning terapevtik ahamiyati yoritilgan⁴.

R.I.Martinova dizartriyani yengil shakllariga ega bolalarda motorik va nutq ko'nikmalarini solishtirishga qaratilgan tadqiqot olib borgan. U bolalarning qo'l va barmoqlarini boshqarish qobiliyati va nutqni shakllantirish jarayonida barmoq mashqlarining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi⁵.

Y.F.Arxiyova esa shterilgan shakldagi dizartriya bilan og'rigan bolalarda individual yondashuv va korreksion mashg'ulotlarning samaradorligini o'rganadi. Unga ko'ra, motorik mashqlarni maxsus dastur bo'yicha bosqichma-bosqich bajarish bolaning nutq rivojlanishiga sezilarli ta'sir qiladi⁶.

I.I.Yermakova dizartrik bolalar bilan ishlashda jismoniy faoliyat va motorik mashqlarni logopedik terapiya bilan birlashtirishni tavsiya qiladi. Bu, ayniqsa, qo'l va barmoqlarning aniq harakatlarini rivojlantirish orqali nutq qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi⁷.

L.A.Danilova markaziy nerv tizimi shikastlanishi natijasida yuzaga kelgan motorik va nutq buzilishlarini kompleks tarzda korreksiya qilish metodikalarini tahlil qiladi. U ergoterapiya va art-

¹ Мартынова Р.И. Сравнительная характеристика детей, страдающих легкими формами дизартрии и функциональной дислалии. Хрестоматия по логопедии. Раздел 3 — Дизартрии. М.: ВЛАДОС, 1997. — С. 45-60.

² Волкова Л.С. Логопедия. М.: ВЛАДОС, 1999. — С. 15-27.

³ Волкова Л.С. Логопедия. М.: ВЛАДОС, 1999. — С. 15.

⁴ Лопатина Л.В., Серебрякова Н.В. Преодоление речевых нарушений у дошкольников. С.-П.: СОЮЗ, 2001. — С. 23-25

⁵ Мартынова Р.И. Сравнительная характеристика детей, страдающих легкими формами дизартрии и функциональной дислалии. Хрестоматия по логопедии. Раздел 3 — Дизартрии. М.: ВЛАДОС, 1997. — С. 30-33.

⁶ Архипова Е.Ф. Коррекционная работа с детьми со стертой формой дизартрии. М., 1989. — С. 12-16.

⁷ Ермакова И.И. Коррекция речи и голоса у детей и подростков. М.: Просвещение, 1996. — С. 8-11.

terapiya mashqlarini qo'llash orqali motorikani rivojlantirishning samarali usullarini ko'rsatadi⁸.

V.B. Galkina va N.Yu. Xomutova esa maxsus mashqlar yordamida barmoq mushaklarini rivojlantirish va motor koordinatsiyani oshirish bo'yicha tajribalarni bayon qilgan. Ularning tadqiqotida mayda motorikani rivojlantirish nutqni korrektsiya qilish jarayonining muhim tarkibiy qismi ekanligi dalillangan⁹.

Metodologiya. Tadqiqotda dizartrik bolalarda umumiy va mayda motorikani rivojlantirishning samarali usullarini o'rganish uchun nazariy va amaliy yondashuvlar qo'llanildi. Nazariy jihatdan logopedik, defektologik va nevrologik adabiyotlar tahlil qilinib, motorika va nutq rivojlanishining uzviy bog'liqligi o'rganildi.

Amaliy qismda esa bolalarning motorik ko'nikmalari kuzatildi va barmoq o'yinlari, plastilin, konstruktiv o'yinlar, muvozanat va koordinatsiya mashqlari orqali motorika rivojlantirildi. Mashqlar individual yondashuv asosida, bosqichma-bosqich va muntazam tarzda bajarildi, natijalar esa logoped va defektolog tomonidan baholandi.

Shunday qilib, metodologiya tizimli va integratsiyalashgan yondashuvga asoslanib, dizartrik bolalarda motorik va nutq rivojlanishini samarali shakllantirish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari. Mayda motorika – bu kichik mushaklar va nozik harakatlarni boshqarish qobiliyatini ifodalovchi psixomotor ko'nikmalardir. U asosan qo'l va barmoq mushaklarini faoliyatga jalb qilish orqali realizatsiya qilinadi va bolalarning kundalik hayotidagi ko'plab faoliyatlar – yozish, chizish, buyumlarni ushlash, tugmalarni bosish, kichik obyektlarni manipulyatsiya qilish kabi jarayonlar uchun zarur hisoblanadi [1, 15]. Shu sababli, mayda motorikaning rivojlanishi dizartrik bolalarda faqat nutqni korrektsiya qilishga emas, balki bolalarning umumiy jismoniy, kognitiv va ijodiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi¹⁰.

Dizartriya – bu markaziy yoki periferik nerv tizimining shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan nevrologik buzilish bo'lib, u nutq apparati mushaklarining innervatsiyasini zaiflashtiradi va bolada tovushlarni aniq talaffuz qilish, nutq ritmi va intonatsiyasini saqlash qobiliyatini susaytiradi¹¹. Shu nuqtai nazardan, mayda motorikani rivojlantirish dizartrik bolalarda nutqni shakllantirish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Mayda motorikani rivojlantirishda turli mashqlar tizimli va bosqichma-bosqich tarzda qo'llaniladi. Masalan, qog'ozga rasm chizish yoki bo'yoq bilan ishlash bolalarning qo'l mushaklarini faollashtiradi va vizual-motor koordinatsiyani oshiradi. Puzzle yoki konstruktiv o'yinlar orqali kichik qismlarni yig'ish qo'l va barmoq mushaklarini mustahkamlashga, koordinatsiya va diqqatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Qog'ozni kesish va yelimlash mashqlari barmoqlarning chidamliligi va aniqligini oshiradi, pylonka, iplar yoki plastilin bilan ishlash esa barmoq harakatlarini noziklashtirish va mushak nazoratini yaxshilash imkonini beradi¹².

Shuningdek, barmoq o'yinlari – turli shakllar va rasmlarni chizish, qisqa yog'och bo'laklarini yig'ish, tugmalarni joylashtirish kabi mashqlar – bolalarda qo'l va barmoq harakatlarini mukammallashtiradi. Modelirovka mashqlari (plastilin yoki yumshoq materiallar bilan ishlash) qo'l mushaklarini mustahkamlash va nozik koordinatsiyani rivojlantirishga yordam beradi. Kichik buyumlar bilan ishlash yoki soddalashtirilgan faoliyatlar orqali bolalar motorik va nutq ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida shakllantiradi. Yumshoq kitoblari va jumallar bilan ishlash – sahifalarni burish, tugmachalarni joylashtirish, kichik kartonlarni manipulyatsiya qilish kabi mashqlar orqali qo'l mushaklari va koordinatsiyani oshirishning samarali usulidir¹³.

Dizartrik bolalar bilan ishlashda individual yondashuv zarur. Har bir bolaning motorik qobiliyati, nutq rivojlanishi va nevrologik holati turlicha bo'lganligi sababli, mashqlar logoped, defektolog yoki nevrolog nazorati ostida amalga oshirilishi tavsiya etiladi. Shu tarzda, motorik ko'nikmalarni rivojlantirish orqali bolalar nutqini yaxshilash bilan birga, tafakkur, diqqat va ijodiy faoliyat ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Natijada, mayda motorikani rivojlantirish dizartrik bolalarda psixomotor, nutqiy va kognitiv rivojlanishning muhim komponenti sifatida qaraladi va pedagogik-amaliy jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi¹⁴.

Muhokama. Dizartriya bilan og'rigan bolalarning umumiy motorikasi, ya'ni katta motorikasi, ko'pincha jismoniy koordinatsiya,

muvozanat va harakatlarning aniq va barqaror bo'lishi bilan bog'liq bo'ladi. Ushbu bolalarda harakatlarning aniqligi va ishonchligi past bo'lishi mumkin, shuning uchun umumiy motorikani rivojlantirishda alohida e'tibor talab etiladi. Umumiy motorikani shakllantirish jarayonida bolalarning muvozanat, kuch, elastiklik, tana pozitsiyasini nazorat qilish va koordinatsiya kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimli ravishda qo'llaniladi.

Muvozanat va koordinatsiyani oshirish uchun yumshoq sathlarda yurish, to'sqlar orqali harakat qilish, kichik trampolinda sakrash va turli o'yin mashqlari samarali hisoblanadi. Bu mashqlar bolalarning tana tuzilmasini mustahkamlash, harakatlarni muvofiqlashtirish va muvozanatni yaxshilashga yordam beradi. Jismoniy kuch va elastiklikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar – masalan, tirishish, orqa o'rindig'iga o'tmash, to'p bilan o'yinlar va qisqa masofalarda yugurish – qo'l, oyoq va tana koordinatsiyasini birgalikda rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu tarzda, umumiy motorika va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari sezilarli darajada oshadi.

Jismoniy mashqlar orqali tana o'rganilishi ham muhimdir. Oddiy harakatlarni, masalan, barmoqlarni ochish va yopish, qo'llarni turli yo'nalishlarda harakatlantirish, qiya va gorizontal yuzalarda harakat qilish, to'sqlar orqali yurish va gimnastika harakatlari bolaning koordinatsiyasi va muvozanatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy va o'zgaruvchan o'yinlar – top bilan o'yinlar, raqs va musiqiy mashg'ulotlar – jismoniy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, bolalarning qo'l-oyoqlarini bir vaqtda harakatlantirishga yordam beradi. Birgalikda o'ynash esa ijtimoiy ko'nikmalarni ham shakllantiradi.

Ergoterapiya, ya'ni motorikani rivojlantirish bo'yicha maxsus mashqlar, dizartrik bolalarda qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bu mashqlar yordamida bolalar tana vaziyatlarini o'zgartirish, qo'lni to'g'ri pozitsiyada ishlash va murakkab harakatlarni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Har bir harakat qadam-baqadam ko'rsatilib, muntazam takrorlash orqali mustahkamlanadi, bu esa bolaning motorik harakatlarini ongli ravishda bajarishga o'rgatadi.

Rag'batlantirish va motivatsiya dizartrik bolalarda motorik mashqlar samaradorligini oshiradi. Mashqlarni o'yinga aylantirish, kichik muvaffaqiyatlarni rag'batlantirish va qiziqarli faoliyatlar bilan birlashtirish bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va mashg'ulotlarga qiziqishini kuchaytiradi.

Mayda motorika – qo'l va barmoqlarning aniqlik va nazoratini oshirish, tafakkur va koordinatsiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi ko'nikmalardir. Dizartrik va dispraksik holatlarda bolalar uchun harakatlarni muvofiqlashtirish qiyinchiliklari yuzaga kelishi mumkin, shuning uchun mayda motorikani rivojlantirishda maxsus yondashuvlar talab etiladi.

Yumshoq materiallar bilan ishlash (plastilin, miso, qum, suv) bolalarning qo'l mushaklari va tafakkurini rivojlantiradi, harakatlarning nozikligi va aniq koordinatsiyani shakllantiradi. Qalam va qog'oz ishlari – rasm chizish, yozish, kesish – qo'l mushaklarini mustahkamlaydi. Lego va boshqa konstruktiv o'yinchoqlar bilan ishlash, ko'p funksiyali o'yinchoqlar orqali turli mashqlar bajarish, naqshlar va shakllar yaratish bolalarda nozik koordinatsiya va barmoq harakatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik yondashuv doirasida fizioterapiya, ergoterapiya va individual mashqlar bolalarning yoshiga va rivojlanish darajasiga moslashtiriladi. Sensorli o'yinlar – qum, suv, tuz, bo'yoqlar va boshqa moddalar bilan ishlash – bolalarning qo'l va barmoq mushaklarini boshqarish ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, elektron quрилmalar yordamida qo'l va barmoq harakatlarini boshqarish ko'nikmalarini oshirish mumkin.

Xulosa. Dizartrik bolada mayda motorikani rivojlantirish juda muhimdir, chunki bu bolaning fizik va psixologik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mayda motorika – bu qo'l va barmoqlarni boshqarish va nozik harakatlarni bajarish qobiliyatidir, va bu ko'nikmalar bolaning kelajakdagi o'qish, yozish, o'zini o'zi parvarish qilish va boshqa kundalik faoliyatlarga tayyorligini shakllantiradi. Ko'nikmalarni rivojlantirish: Mayda motorikani rivojlantirish orqali bola turli fizikal faoliyatlarini, masalan, yasash, qurish, chizish, turli predmetlarni tutish va manipulyatsiya qilishni o'rganadi. Miya va

⁸ Данилова Л.А. Методы коррекции речевого и психического развития у детей с церебральным параличом. Хрестоматия по логопедии. Раздел 3 — Дизартрии. М.: ВЛАДОС, 1997. — С. 28-31.

⁹ Галкина В.Б., Хомутова Н.Ю. Использование физических упражнений по развитию мелкой моторики пальцев рук. Журнал «Дефектология», 1999, №3, с. 15–28.

¹⁰ Лопатина Л.В., Серебрякова Н.В. Преодоление речевых нарушений у дошкольников. С.-П.: СОЮЗ, 2001. — С. 23-81

¹¹ Мартынова Р.И. Сравнительная характеристика детей, страдающих легкими формами дизартрии и функциональной дислалией. Хрестоматия по логопедии. Раздел 3 — Дизартрии. М.: ВЛАДОС, 1997. — С. 45-60.

¹² Архипова Е.Ф. Коррекционная работа с детьми со стертой формой дизартрии. М., 1989. — С. 10-52.

¹³ Ермакова И.И. Коррекция речи и голоса у детей и подростков. М.: Просвещение, 1996. — С. 30-85.

¹⁴ Галкина В.Б., Хомутова Н.Ю. Использование физических упражнений по развитию мелкой моторики пальцев рук. Журнал «Дефектология», 1999, №3, с. 15–28.

tananing integratsiyasi: Mayda motorika miya va tananing o'zaro ishlashini mustahkamlashga yordam beradi. Barmoqlar va qo'llarni boshqarish ko'nikmalari, ayniqsa, nutq va kognitiv rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi. Miya va tananing integratsiyasi: Mayda motorika miya va tananing o'zaro ishlashini mustahkamlashga yordam beradi. Barmoqlar va qo'llarni boshqarish ko'nikmalari, ayniqsa, nutq va kognitiv rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi. Dastlabki bilimlar va kreativlik: Tasavvur

qilish va ijodiy faoliyatni rivojlantirishga yordam beradigan o'yinlar, chizmalar va boshqa faoliyatlar bolaning muvozanatli rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shu bilan birga, mayda motorikani rivojlantirish uchun bolaning yoshiga mos o'yinlar va mashqlarni muntazam tarzda bajarish juda muhim. Bu jarayonda ota-ona yoki tarbiyachi bola bilan birga faol qatnashib, unga yordam berishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Волкова Л.С. Логопедия. М.: ВЛАДОС, 1999. – С. 15-72.
2. Лопатина Л.В., Серебрякова Н.В. Преодоление речевых нарушений у дошкольников. С.-П.: СОЮЗ, 2001. – С. 23-81
3. Мартынова Р.И. Сравнительная характеристика детей, страдающих легкими формами дизартрии и функциональной дислалией. Хрестоматия по логопедии. Раздел 3 — Дизартрии. М.: ВЛАДОС, 1997. – С. 45-60.
4. Архипова Е.Ф. Коррекционная работа с детьми со стертой формой дизартрии. М., 1989. – С. 10-52.
5. Ермакова И.И. Коррекция речи и голоса у детей и подростков. М.: Просвещение, 1996. – С. 30-85.
6. Лопатина Л.В., Серебрякова Н.В. Логопедическая работа в группах дошкольников со стертой формой дизартрии. С.-П.: Образование, 1994. – С. 12-50.
7. Данилова Л.А. Методы коррекции речевого и психического развития у детей с церебральным параличом. Хрестоматия по логопедии. Раздел 3 — Дизартрии. М.: ВЛАДОС, 1997. – С. 60-92.
8. Галкина В.Б., Хомутова Н.Ю. Использование физических упражнений по развитию мелкой моторики пальцев рук. Журнал «Дефектология», 1999, №3, с. 15-28.